AN'ANAVIY VA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN BOSHQARUV TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI (MS1H1 SERVO MOTORI MISOLIDA)	798
Pirmatov Nurali Berdiyevich, Egamov Akmal Mamarasulovich, Mamarasulov Nodir Akmal o'g'li	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIK VA LIKVIDLIKNI BOSHQARUV HISOBIGA INTEGRATSIYALASH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI, PROGNOZLASH VA ERTA OGOHLANTIRISH MEXANIZMI.....	803
Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich	
TAYYOR MAHSULOT QADRSIZLANISHI HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH: ISHCHI SCHYOTLARINI JORIY ETISHNING METODIK ASOSLARI.....	808
Babakulova Matluba Kurbannazarovna	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МЕДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ РАБОТЫ В МАХАЛЛЯХ.....	812
Kosimjonov Nozimjon Kozimjonovich	
MINTAQALARNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHIDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING AHAMIYATI: NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI	815
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
TURISTIK XIZMAT BOZORINING MOHIYATI, UNING VAZIFALARI VA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	821
Payazov Murod Maqsudovich, Salimova Mumtozbeqim Jahongir qizi, Shahnoza Xudoyberdiyeva Davlatovna	
CHIGITLI PAXTA TARKIBIDAN YOT ARALASHMALARNI AJRATISH UCHUN QO'LLANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR.....	825
Bozorov Dilmurod Bahromjon o'g'li, Jakparov Oltinboy Rustamjon o'g'li	
FEMALE ENTREPRENEURSHIP AND GREEN INITIATIVES: A CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN	830
Abduxafizova Madinabonu Mirabbos qizi	
SOLIQ INSTRUMENTLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	834
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li, Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOAT ISHLAB CHIQRISHI KONSENTRATSIYASINING HUDUDIY TAHLILI: VILOYATLAR VA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR BO'YICHA HERFINDAHL-HIRSCHMAN INDEKSI	839
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	



CHARM-POYABZAL SANOATI TARMOG'INING RIVOJLANISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI TO'G'RISIDA.....	847
Azimova Feruza Payziyevna, O. Maxmudov	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA RESURS EHTIYOJLARI.....	852
Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi	
KADRLAR SALOHİYATINI OSHIRISHGA YO'NALTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	858
Xo'jaqulov Bobur Rustam o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KREDITLASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	864
Tajimuratova Nelufar Vays qizi	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Normamatova Sitara Nozim qizi, Raxmanov Mexridin Sindarovich	
BAHOLANGAN RISKLARGA NISBATAN AUDITORNING HATTI-HARAKATLARI	876
A.Z.Avlokulov	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDİYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA MOLIYAVIY HISOBOTDA OCHIB BERISHNI TAKOMILLASHTIRISH	880
Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	885
Мухторов М. Н., Каримова А. М.	
FIZIK XAVFSIZLIK NAZORATI VA UNI ISPY DASTURI ASOSIDA MONITORING QILISH.....	892
Usmanbayev Doniyorbek Shuxratovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH JARAYONIDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI	902
Bazarbaeva Dildora Ekramjon qizi, Koshanov Abdimurat Azat uli	
KALSIYLANGAN SODA ISHLAB CHIQRISHDA TEXNOLOGIK PARAMETRLARNI METROLOGIK TA'MINLASHNING AHAMIYATI	910
Ametova Biybisuliu Xamidullaevna, Ametov Quanishbay Xamidullaevich	



KALSIYLANGAN SODA ISHLAB CHIQRISHDA TEKNOLOGIK PARAMETRLARNI METROLOGIK TA'MINLASHNING AHAMIYATI

Ametova Biybisuliu Xamidullaevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti,

Assistent

E-mail: biybisuliwametova@gmail.com

Ametov Quanishbay Xamidullaevich

Qo'ng'iro't tumani iqtisodiyot va moliya bo'limi bosh mutaxassisi

E-mail: 2qumaeray3593@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kalsiylangan soda (Na_2CO_3) ishlab chiqarish jarayonida asosiy texnologik parametrlarni o'lchash va nazorat qilishda metrologik ta'minlashning ahamiyati yoritilgan. Harorat, bosim, konsentratsiya va modda sarfi kabi parametrlarni o'lchash aniqligining mahsulot sifati hamda ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'siri tahlil qilingan. O'lchash vositalarini tanlash, ularni kalibrlash va o'lchash natijalarining noaniqligini baholash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Metrologik nazoratni takomillashtirish ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: metrologiya, kalsiylangan soda, texnologik parametrlar, o'lchash aniqligi, kalibrlash, o'lchash noaniqligi, ishlab chiqarish sifati.

Abstract. This article examines the importance of metrological support in measuring and controlling key technological parameters in the production of soda ash (Na_2CO_3). The influence of measurement accuracy of temperature, pressure, solution concentration, and material flow rate on product quality and production efficiency is analyzed. Special attention is paid to the selection of measuring instruments, their calibration, and the evaluation of measurement uncertainty. It is shown that improving metrological control is an important factor in ensuring the stability of the production process.

Keywords: metrology, soda ash, technological parameters, measurement accuracy, calibration, measurement uncertainty, product quality.

Аннотация. В статье рассмотрено значение метрологического обеспечения при измерении и контроле основных технологических параметров в процессе производства кальцинированной соды (Na_2CO_3). Проанализировано влияние точности измерений температуры, давления, концентрации раствора и расхода вещества на качество продукции и эффективность производства. Особое внимание уделено вопросам выбора средств измерений, их калибровки и оценки неопределённости результатов измерений. Показано, что совершенствование метрологического контроля является важным фактором обеспечения стабильности производственного процесса.

Ключевые слова: метрология, кальцинированная сода, технологические параметры, точность измерений, калибровка, неопределённость измерений, качество продукции.

KIRISH

Zamonaviy kimyo sanoatida mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda metrologiya muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, kalsiylangan soda ishlab chiqarish jarayoni murakkab texnologik bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqichda parametrlarning aniq va ishonchli o'lchanishi talab etiladi. O'lchash natijalaridagi xatoliklar mahsulot sifatining pasayishiga, xomashyo va energiya resurslari sarfining ortishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, texnologik parametrlarni metrologik jihatdan ta'minlash masalasi mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim hamda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Harorat, bosim, modda sarfi va eritmalar konsentratsiyasi kabi asosiy texnologik parametrlarning aniqlik bilan nazorat qilinishi ishlab chiqarish jarayonining barqarorligini ta'minlash, texnologik yo'qotishlarni kamaytirish va mahsulot sifatini xalqaro talablar darajasida ushlab turishda muhim omil hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kalsiylangan soda asosan Solvay usuli asosida ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish jarayoni bir nechta o'zaro bog'liq texnologik bosqichlardan iborat. Ushbu texnologiya natriy xlorid eritmasini ammiak bilan to'yintirish, karbonat angidrid bilan ishlov berish, natriy gidrokarbonatni cho'ktirish va uni kalsinatsiya qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi [1].

Dastlab tozalangan natriy xlorid eritmasi ammiak bilan to'yintiriladi. Keyingi bosqichda ushbu eritma karbonatlash kolonnasiga yuborilib, unga karbonat angidrid gazi uzatiladi. Natijada eritmada natriy gidrokarbonat (NaHCO_3) kristallari hosil bo'ladi. Har bir bosqichda jarayonning optimal rejimini saqlash uchun asosiy texnologik parametrlarni doimiy nazorat qilish zarur hisoblanadi.

Jarayonning muhim texnologik xususiyatlaridan yana biri ammiakning qayta tiklanishi va takroriy foydalanilishidir. Filtrlashdan keyin qolgan eritmada ammiak ajratib olinib, texnologik jarayonga qayta yo'naltiriladi. Bu esa xomashyo sarfini kamaytirish va ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalsiylangan soda ishlab chiqarish jarayonida harorat, bosim, eritma konsentratsiyasi, modda sarfi va vaqt kabi parametrlarning uzluksiz nazorati talab etiladi. Ushbu parametrlarning o'zgarishi jarayonning texnologik rejimiga hamda tayyor mahsulot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, jarayonni ishonchli va yuqori aniqlikdagi o'lchash vositalari bilan ta'minlash metrologik jihatdan muhim masala hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kalsiylangan soda ishlab chiqarish jarayonida texnologik parametrlarni metrologik ta'minlashning ahamiyatini baholash maqsadida tizimli va kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi, ishlab chiqarish jarayonining asosiy texnologik bosqichlari — xomashyoni tayyorlash, karbonizatsiya, kalsinatsiya va quritish jarayonlari tahlil qilindi. Har bir bosqichda nazorat qilinadigan asosiy parametrlar aniqlab olindi. Jumladan, harorat (T), bosim (P), eritma konsentratsiyasi (C) hamda modda sarfi (G) kabi kattaliklar asosiy nazorat obyektlari sifatida tanlandi.

Ikkinchi, o'lchash vositalarining metrologik tavsiflari — aniqlik darajasi, sezgirlik, diapazon va ishonchlilik ko'rsatkichlari o'rganildi. Bunda zamonaviy sensorlar, avtomatik nazorat tizimlari va raqamli o'lchash asboblardan foydalanish nazarda tutildi. O'lchash xatoliklarini aniqlash maqsadida statistik tahlil usullari qo'llanildi.

Uchinchi, texnologik parametrlarni o'lchash va nazorat qilishning matematik modeli ishlab chiqildi. Bilvosita o'lchashlar uchun quyidagi umumiy funksional bog'lanishdan foydalanildi:

$$Y=f(x_1, x_2, \dots, x_n)$$

bu yerda:

- Y — yakuniy mahsulot sifati ko'rsatkichi;
- x_i — texnologik parametrlar.

Shuningdek, o'lchash xatoliklarini baholash uchun quyidagi ifoda qo'llanildi:

$$\Delta Y = \sqrt{\left(\frac{\partial Y}{\partial x_1} \Delta x_1\right)^2 + \dots + \left(\frac{\partial Y}{\partial x_n} \Delta x_n\right)^2}$$

Mazkur yondashuv texnologik parametrlar o'zgarishining mahsulot sifatiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

To'rtinchi, ishlab chiqarish jarayonida metrologik ta'minotni takomillashtirish bo'yicha eksperimental va taqqoslash usullari qo'llanildi. Standartlashtirilgan o'lchash usullari bilan an'anaviy usullar asosida olingan natijalar o'zaro solishtirildi. Olingan natijalar asosida texnologik parametrlarni nazorat qilishda metrologik ta'minotni kuchaytirish ishlab chiqarish barqarorligi, mahsulot sifati va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kalsiylangan soda ishlab chiqarish jarayonining barqaror va samarali olib borilishi asosiy texnologik parametrlarning uzluksiz hamda aniq nazorat qilinishiga bog'liq. Har bir texnologik bosqichda o'lchanadigan parametrlar uchun mos o'lchash vositalari tanlanib, ularning aniqlik sinfi va ruxsat etilgan xatoliklari belgilanishi

zarur [2] (1-jadval).

1-jadval
Asosiy texnologik parametrlar va ularning metrologik tavsifi¹

Texnologik bosqich	O'lanadigan parameter	O'lchash birligi	O'lchash vositasi	Ruxsat etilgan og'ish
Ammiak bilan to'yintirish	Harorat	°C	Termopara (RTD)	±1-2 °C
Karbonatlash	Bosim	MPa	Manometr	±0.01 MPa
Karbonatlash	Eritma konsentratsiyasi	%	Areometr, titrlash	±0.5%
Filtrlash	Modda sarfi	m ³ /soat	Sarf o'lchagich	±1-2%
Kalsinatsiya	Harorat	°C	Termopara	±5 °C
Tayyor mahsulot	Massasi	Kg	Elektron tarozai	±0.1 %

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir texnologik bosqichda o'lchash aniqligiga qo'yiladigan talablar turlicha bo'lib, ularning bajarilishi mahsulot sifatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalsinatsiya jarayonida haroratning noto'g'ri o'lchanishi natijasida NaHCO₃ ning to'liq parchalanmasligi yoki ortiqcha energiya sarfi yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, o'lchash vositalarining aniqlik sinfini to'g'ri tanlash va ularni davriy kalibrlash ishlab chiqarish jarayonining metrologik ishonchligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Bosim va modda sarfini o'lchashdagi xatoliklar texnologik jarayonning barqaror ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatib, xomashyo va energiya resurslari sarfining ortishiga sabab bo'ladi. Natijada ishlab chiqarish tannarxi oshadi va mahsulotning standart talablariga mos kelmaslik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Shu bois, o'lchash xatoliklarini minimallashtirish, o'lchash vositalarini o'z vaqtida kalibrlash hamda o'lchash natijalarining noaniqligini baholash mahsulot sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Karbonatlash jarayonida optimal harorat 35°C bo'lib, ruxsat etilgan og'ish ±1°C ni tashkil etadi. Agar haroratni o'lchash vositasidagi xatolik ±3°C ga yetsa, natriy gidrokarbonat (NaHCO₃) ning cho'kish tezligi pasayadi va kristallarning notekis hosil bo'lishi kuzatiladi. Bu holat keyingi kalsinatsiya bosqichida kalsiylangan soda (Na₂CO₃) ning massaviy ulushi taxminan 1,5–2,0 % ga kamayishiga olib kelishi mumkin.

Eritma konsentratsiyasini aniqlashda ruxsat etilgan xatolik ±0,5 % bo'lishi talab etiladi. Agar areometr yoki titrlash usulida o'lchash xatoligi ±1,5 % ni tashkil etsa, tayyor mahsulotdagi Na₂CO₃ ning kimyoviy tozaligi pasayadi va standart talablariga to'liq javob bermaydigan mahsulot hosil bo'lish ehtimoli ortadi. Natijada qayta ishlash jarayonlari yoki texnologik yo'qotishlar hajmi oshadi.

Shuningdek, kalsinatsiya jarayonida haroratning 900°C o'rniga 880°C da olib borilishi NaHCO₃ ning to'liq parchalanmasligiga sabab bo'ladi, 920°C dan yuqori bo'lishi esa ortiqcha energiya sarfi va uskunalarning tez eskirishiga olib keladi. Bu holatlar ishlab chiqarish tannarxining oshishiga hamda mahsulot sifatining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval
O'lchash xatoligining kalsiylangan soda sifatiga ta'siri²

Texnologik parameter	Nominal qiymat	Ruxsat etilgan xatolik	Amaldagi xatolik	Mahsulot sifatiga ta'siri
Karbonatlash harorati	35°C	±1°C	±3°C	NaCO ₃ kristallanishi pasayadi, Na ₂ CO ₃ chiqishi 1,5-2% ga kamayadi
Eritma konsentratsiyasi	26%	±0,5%	±1,5%	Kimyoviy tozaligi pasayadi, brak miqdori kamayadi
Karbonatlash bosimi	0,4 MPa	±0,01 MPa	±0,03MPa	Jarayon beqarorlashadi, cho'kish notekis bo'ladi
Kalsinatsiya harorati	900 °C	±5°C	-20°C	NaHCO ₃ to'liq parchalanmaydi
Modda sarfi	100%	±1%	±3%	Xomashyo va energiya sarfi ortadi

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, texnologik parametrlarni o'lchashdagi xatoliklar ruxsat etilgan chegaradan oshganda mahsulotning sifat ko'rsatkichlari sezilarli darajada yomonlashadi. Ayniqsa, harorat va eritma konsentratsiyasini aniqlashdagi xatoliklar kalsiylangan soda tarkibidagi asosiy moddaning ulushi hamda kimyoviy tozaligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, o'lchash vositalarining aniqlik sinfini to'g'ri tanlash va ularni davriy kalibrlash mahsulot sifatini barqaror ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, kalsiylangan soda ishlab chiqarish jarayonida texnologik parametrlarning aniq va ishonchli o'lchanishi mahsulot sifati hamda ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, karbonatlash va kalsinatsiya bosqichlarida harorat, bosim hamda eritma konsentratsiyasining optimal qiymatlarda ushlab turilishi natriy karbonatning sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Metrologik ta'minlash tizimining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi o'lchash xatoliklarining ortishiga, texnologik jarayonning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga hamda xomashyo va energiya resurslari sarfining ortishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, o'lchash vositalarini davriy kalibrlash va ularning aniqlik sinfini nazorat qilish ishlab chiqarish jarayonining barqaror ishlashini ta'minlaydi.

Metrologik ta'minlash tizimi ishlab chiqarishda qo'llaniladigan o'lchash vositalarining muntazam tekshiruvdan o'tkazilishini ham nazarda tutadi. Bu jarayon xalqaro standartlar, jumladan International Organization for Standardization tomonidan ishlab chiqilgan ISO 9001 va ISO/IEC 17025 talablariga muvofiq amalga oshiriladi [4]. Mazkur standartlar o'lchash vositalarining ishonchligini oshirish, o'lchash natijalarining qayta takrorlanishini ta'minlash hamda laboratoriya va ishlab chiqarish jarayonlarida sifat nazoratini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy avtomatlashtirilgan nazorat tizimlaridan foydalanish ham metrologik ta'minot samaradorligini oshiradi. Raqamli sensorlar va dasturiy monitoring tizimlari yordamida real vaqt rejimida parametrlarni kuzatish va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan og'ishlarni tezkor aniqlash va bartaraf etishga yordam beradi.

Natijada, metrologik ta'minlash tizimini takomillashtirish kalsiylangan soda ishlab chiqarishda mahsulot sifatini barqaror saqlash, energiya va xomashyo resurslari sarfini kamaytirish hamda umumiy texnologik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi [5].

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, zamonaviy metrologik ta'minot vositalarini joriy etish:

- o'lchash aniqligini oshiradi;
- inson omili ta'sirini kamaytiradi;
- mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlaydi;
- energiya va xomashyo resurslari sarfini optimallashtiradi.

Shuningdek, xalqaro standartlarga mos metrologik tizimni joriy etish ishlab chiqarish jarayonining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa mahsulotni eksport talablariga mos ravishda ishlab chiqarish imkonini yaratadi.

Natijalar tahlili asosida shuni aytish mumkinki, metrologik ta'minotni takomillashtirish nafaqat texnik, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Kalsiylangan soda ishlab chiqarish korxonalarida asosiy texnologik parametrlarni nazorat qiluvchi o'lchash vositalarining aniqlik sinfini oshirish hamda zamonaviy raqamli o'lchash tizimlarini joriy etish.
2. O'lchash vositalarini muntazam ravishda kalibrlash va verifikatsiyadan o'tkazish orqali o'lchash natijalarining ishonchligini ta'minlash.
3. Texnologik jarayonlarda o'lchash noaniqligini baholash usullarini joriy etish va metrologik monitoring tizimini takomillashtirish.
4. Ishlab chiqarish jarayonlarida avtomatlashtirilgan nazorat va boshqaruv tizimlarini keng qo'llash orqali inson omili ta'sirini kamaytirish.
5. Metrologik xizmat xodimlarining malakasini oshirish hamda zamonaviy o'lchash texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kalsiylangan soda ishlab chiqarish jarayonida texnologik parametrlarni metrologik jihatdan to'g'ri ta'minlash mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Harorat, bosim, eritma konsentratsiyasi va modda sarfi kabi parametrlarning aniq o'lchanishi texnologik jarayonning barqarorligini ta'minlaydi hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Metrologik nazoratni takomillashtirish, o'lchash vositalarini zamonaviylashtirish va ularni davriy kalibrlash orqali ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklarni kamaytirish mumkin. Natijada mahsulot sifati yaxshilanadi, energiya va xomashyo resurslari sarfi kamayadi hamda korxonaning iqtisodiy



samaradorligi oshadi.

Kalsiylangan soda (Na_2CO_3) ishlab chiqarish jarayonida asosiy texnologik parametrlarni aniq o'lchash va nazorat qilish ishlab chiqarish samaradorligi hamda mahsulot sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, harorat, bosim, eritma konsentratsiyasi va modda sarfi kabi ko'rsatkichlarning ishonchli o'lchanishi texnologik jarayonlarning barqaror ishlashiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu jarayonlarning samarali boshqarilishi ko'p jihatdan zamonaviy o'lchash vositalari hamda ularning metrologik ta'minotiga bog'liq.

Shuningdek, ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan o'lchash vositalarini to'g'ri tanlash, ularni muntazam kalibrlash hamda o'lchash natijalarining noaniqligini baholash jarayon sifatini oshirishga xizmat qiladi. Metrologik nazoratni takomillashtirish orqali texnologik og'ishlarning oldini olish, xomashyo va energiya resurslari sarfini kamaytirish hamda ishlab chiqarish jarayonining ishonchligini oshirish mumkin.

Natijada, kalsiylangan soda ishlab chiqarishda metrologik ta'minotni rivojlantirish va uni xalqaro talablarga mos ravishda tashkil etish jarayon samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini barqaror saqlash hamda sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ametova B.Kh., Boboev G.G. *Analysis of the Production Process of Calcium Soda*. // *Science and Innovation. International Scientific Journal*, Volume 2, Issue 4, April 2023.
2. Kaipbergenov A.T., Jumamuratov R., Kengesbaeva G. *Kimyoviy texnologik jarayonlar yordamida olinadigan kaustik sodaning xususiyatlarini o'rganish*. // *Modern Science and Research Journal*, 2024.
3. Rahmonov D.B., Narzullaeva A.M. *Natriy karbonat ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini avtomatlashtirilgan metodlarini tadqiq qilish*. // *Ekonomika i Sotsium*, №2(93), 2022.
4. Ametova B.X., Boboev G.G. *Kalsiylangan soda ishlab chiqarish jarayonida xalqaro standartlarni integratsiya qilish*. // "Innovatsion texnika va texnologiyalarning qishloq xo'jaligi–ozuq-ovqat tarmog'idagi muammolari va istiqbollari" mavzusidagi III Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2023.
5. Ametova B., Boboev G., Djumaniyazova N. *Implementation of an Integrated Management System in Calcium Soda Production*. // *E3S Web of Conferences*, Vol. 434, 02029, 2023.
6. Lipták B.G. *Instrument Engineers' Handbook: Process Measurement and Analysis*. 4th ed. – Boca Raton: CRC Press, 2016.
7. Bentley J.P. *Principles of Measurement Systems*. 4th ed. – Pearson Education Limited, 2005.
8. Doebelin E.O., Manik D.N. *Measurement Systems: Application and Design*. 6th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2011.
9. ISO/IEC Guide 98-3:2008. *Uncertainty of Measurement – Part 3: Guide to the Expression of Uncertainty in Measurement (GUM:1995)*. Geneva: International Organization for Standardization, 2008.
10. Patranabis D. *Sensors and Transducers*. 3rd ed. – New Delhi: PHI Learning Pvt. Ltd., 2013.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100